

4-DARS. KAMALAK

Dars maqsadlari:

- tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish;
- qog'ozdan shakllarni kesish, qirqib olish, bukish va yopishtirish texnikasi haqidagi tushunchalarni kengaytirish;
- qirqib olish va yopishtirish ko'nikmalarini qo'llab buyumlar yasash qobiliyatini rivojlantirish;
- xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishning muhimligini tushunishni mustahkamlash;
- qog'ozdan tejamkorlik bilan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi bugungi darsning maqsadi rangli qog'ozdan kamalak yasashdan iborat ekanligini aytadi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

Kamalak osmonda qachon paydo bo'ladi? (Yomg'irdan keyin).

Kamalakning rangi qanday? (Rang-barang).

Kamalakdagi ranglar ketma-ketligi qanday? (Qizil, to'q sariq, sariq, yashil, moviy, ko'k, binafsha).

Kamalakdagi ranglar ketma-ketligini qanday osonlik bilan eslab qolish mumkin? ("Har bir ovchi qirg'ovul qayerda o'tirganini bilishni istaydi" iborasini o'rganish).

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning bu qismi tuzilishga ko'ra odatdagidek o'tkaziladi.

Darslikda o'quvchilarga yordam sifatida video ko'rsatma berilgan bo'lib, ular shu asosida ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Avvalo, o'quvchilar moviy rangli qog'oz tayyorlashlari va qizil, to'q sariq, sariq, yashil, moviy, ko'k hamda binafsha rangli qog'ozlardan bir xil o'lchamdagi bittadan tasma qirqib olishlari kerak (buning uchun chizg'ichdan foydalanish lozim). Keyin oq qog'ozdan ikkita bulut shaklida qirqma tayyorlash zarur. Turli ranglardagi qog'oz tasmalarini darslikda

ko'rsatilganidek, ketma-ket moviy qog'ozga yopishtirish va hosil bo'lgan kamalakni bulut shakllari bilan bezatish kerak.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lgan hollarda o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

5. Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa).

- Bugun nimani o'rgandik?
- Qanday yasama buyum tayyorladik?
- Kamalak qachon paydo bo'lishini eslaysizmi?

Kutilayotgan natijalar:

- qog'ozdan shakllarni qirqish, kesish, bukish va yelimlash texnikasi haqida tasavvurga ega bo'lish;
- qog'ozdan shakllarni qirqish, kesish, bukish va yopishtirish texnikasini qo'llagan holda rangli qog'ozdan "Kamalak" yasama buyumini yarata olish;
- bezak elementlarini yaratish uchun tasavvurni qo'llay olish;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va qog'ozdan tejamkorlik bilan foydalanish muhimligini tushunish.

5-DARS. OLMA

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarda bezak texnikasi - mozaika haqida tasavvur shakllantirish;
- olma tasvirini yaratishda mozaika texnikasidan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi mozaika texnikasi haqida umumiy tushuncha beradi. Mozaika - bu turli materiallar bo'laklaridan tasvir yaratish usulidir.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Ish daftaringizning 22-betidagi rasmlarga qarang.